

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

TILLABEKOV BEKZOD ALISHER O‘G‘LI

**SUG‘ORILADIGAN TIPIK BO‘Z TUPROQLAR SHAROITIDA YANGI
TURDAGI MIKROELEMENTLI FOSFORLI O‘G‘ITLARNING G‘O‘ZA
HOSILDORLIGIGA TA‘SIRI**

06.01.04 - «Agrokimyo»

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
Сельскохозяйственным наукам**

Content of the abstract of (PhD) doctoral dissertation of agricultural sciences

Tillabekov Bekzod Alisher o‘g‘li

Sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar sharoitida yangi turdagi mikroelementli fosforli o‘g‘itlarning g‘o‘za hosildorligiga ta‘siri 3

Тиллабеков Бекзод Алишер угли

Влияние новых видов фосфорных удобрений содержащих микроэлементов на продуктивность хлопчатника в условиях орошаемых типичных сероземов 21

Tillabekov Bekzod Alisher ogli

The influence of new type of micronutrient containing phosphorus fertilizers on seed-lint yield of cotton in the condition of irrigated typical sierozem soils . 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 43

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

TILLABEKOV BEKZOD ALISHER O‘G‘LI

**SUG‘ORILADIGAN TIPIK BO‘Z TUPROQLAR SHAROITIDA YANGI
TURDAGI MIKROELEMENTLI FOSFORLI O‘G‘ITLARNING G‘O‘ZA
HOSILDORLIGIGA TA‘SIRI**

06.01.04 - «Agrokimyo»

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2019.4.PhD/Qx503 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifasida (<http://soil.uz/>) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Niyazaliyev Begali Irisalievich

qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sanaqulov Akmal Lapasovich

qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, dotsent
Samarqand davlat universiteti

Karimberdiyeva Amina Azimovna

qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Milliy Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «09» 03 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, O‘zPITI ko‘chasi, TATI. Tel.: (+99878) 150-62-84; faks: (99871) 150-61-37; e-mail: info@soil.uz).

Dissertatsiya bilan Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (69 - raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, O‘zPITI ko‘chasi, TATI. Tel.: (+99878) 150-62-84; faks: (99871) 150-61-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «22» 02 kuni tarqatildi.

(2023 yil «22» 02 dagi № 1 -raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.M. Bobomurodov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., katta ilmiy xodim

J.M. Ko‘ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., katta ilmiy xodim

N.Yu. Abduraxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda «dunyo bo'yicha g'ozda ekiladigan maydon 29,2 mln. gektarni tashkil etib, har yili 26,8 mln. tonnadan ortiq paxta tolasi yetishtiriladi»¹. «Hosildorlikni oshirishda tuproq unumdorligini saqlash hamda agrokimyoviy xossalarini yaxshilash maqsadida fosforli o'g'itlarga bo'lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda»². Shu sababli Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlarining agrokimyoviy xossalarini yaxshilash, fosforli o'g'itlarni g'ozadagi foydalanish koeffitsientlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Dunyoning go'za yetishtiruvchi yirik davlatlarida, shu jumladan, AQSh, Hindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlarda fosforli mineral o'g'itlarni tuproq unumdorligiga ta'siri va hosildorlikni oshirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarda ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Bu borada, qishloq xo'jalik ekinlari ekiladigan yer maydonlarining agrokimyoviy xossalarini aniqlagan holda tarkibida makro- va mikroelement bo'lgan yangi turdagi mineral o'g'itlarni g'ozada qo'llashning maqbul muddatlarini aniqlash asosida qishloq xo'jaligi ekinlariga, jumladan, g'ozani oziqa elementlarga bo'lgan talabini qondirish, quruq massa to'plashi, fosfordan foydalanish koeffitsientini oshirish hamda paxtaning texnologik sifat ko'rsatkichlariga va iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikada tarqalgan sug'oriladigan tuproqlarning agrokimyoviy xossalarini yaxshilash, qishloq xo'jaligi ekinlari, ayniqsa paxta hosildorligini oshirishda tarkibida makro- va mikroelement bo'lgan yangi turdagi mineral o'g'itlarni maqbul muddatlarda qo'llash, tola sifatini yaxshilashga qaratilgan agrotexnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali, ilmiy asoslangan intensiv dehqonchilikni rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida «... tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda o'g'itdan foydalanishning samarali tizimini joriy etish, tuproq unumdorligini saqlash va yanada oshirish choralari ko'rish»³ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shuning uchun ham har bir mintaqaning tuproq-iqlim sharoitiga mos o'g'itlash tizimini ishlab chiqish asosida ekinlardan, xususan, g'ozadan yuqori hosil olish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PQ-5742-son «Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2021 yil 26 fevraldagi PQ-5009-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2022 yilda amalga oshirish to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa

¹ <http://cotcorp.gov.in/shares.aspx>

² [http://Elkdustrial %, 20 Minirals %, 20 % F 2018](http://Elkdustrial%20Minirals%20%F2018)

³ 23 oktyabrdagi PF-5853-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni

me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Fosforli mineral o'g'itlarni g'ozadagi samaradorligini, mikroelementlarni paxtachilikda qo'llashning me'yor va muddatlarini hamda ularning ahamiyatini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari bir qator xorijlik olimlar D.N.Pryanishnikov, L.N.Karseva, A.V.Peterburgskiy, K.P.Magniskiy, A.N.Gundareva, I.I.Igonov, M.I.Kudashkin hamda respublika olimlari M.A.Belousov, N.N.Zelenin, B.X.Tillabekov, X.X.Boltaev, Ye.K.Kruglova, X.X.Enileev, V.K.Andryushenko, B.M.Isaev, M.M.Alieva, T.P.Piraxunov, Q.M.Mirzajonov, F.X.Xoshimov, A.A.Karimberdieva, A.L.Sanaqulov, Sh.A.Berdiqulov, A.G'.G'ofurov, D.A.Sattarov, M.T.Abdullaev, O.R.Kozak, J.U.Aripov, D.A.Abduzoirova, Z.T.Saidmurodova va boshqalar tomonidan olib borilgan. Lekin, sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida tarkibida Cu va Mo mikroelementlari bo'lgan fosforli o'g'itning g'ozada qo'llash muddatlarini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar etarli darajada amalga oshirilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Paxta seleksiyasi, urug'chiligi, va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining KA-7-004 «Mahalliy xom ashyodan tarkibida mikroelementlari bo'lgan yangi turdagi murakkab o'g'itlar olishni ratsional texnologiyasini ishlab chiqish hamda g'ozada qo'llanilganda tuproq unumdorligiga, o'simlikka hamda paxta hosiliga ta'sirini o'rganish» (2015-2017 yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy xom ashyodan tayyorlangan tarkibida mis va molibden mikroelementlari bo'lgan yangi turdagi superfosfat o'g'itini sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida qo'llash muddatlariga bog'liq holda tuproqning agrokimyoviy xossalari hamda g'ozaga hosildorligiga va tola sifatiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mahalliy xom ashyodan tayyorlangan yangi turdagi mikroelementli fosfor o'g'itini g'ozada qo'llash muddatlariga bog'liq holda tuproqning agrokimyoviy holatini, ya'ni nitratli azot, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy dinamikasini hamda Cu, Mo larning umumiy, harakatchan shakllarini o'zgarishiga ta'sirini o'rganish;

g'ozaga organlarida to'plangan oziqa moddalar (NPK, Cu va Mo) miqdorini, o'zlashtirishi va bir tonna hosil uchun sarflanishi hamda fosforning foydalanish koeffitsientini aniqlash;

mahalliy xom ashyodan tayyorlangan mikroelementli fosfor o'g'itini g'ozaning o'sishi, rivojlanishi, quruq massa to'plashi, bir ko'sakdagi paxta vaznining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash;

yangi turdagi mikroelementli fosforli o'g'itni paxta hosili va tolaning texnologik sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini hamda iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot ob'ekti sifatida eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproq, mahalliy xom ashyodan tayyorlangan (Cu va Mo) mikroelementli superfosfat o'g'iti, g'o'zaning «Navro'z» navi tanlangan.

Tadqiqot predmeti mahalliy xom ashyodan tayyorlangan mikroelementli fosforli o'g'itni qo'llash muddatlari, tuproqda NO_3 , P_2O_5 , K_2O , Cu va Mo miqdorining o'zgarishi, o'rta tolali g'o'zaning «Navro'z» navi o'sishi, rivojlanishi, 1-terim salmog'i, paxta hosili, tolaning texnologik sifat ko'rsatkichlari va iqtisodiy samaradorligi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dala tajribalarini o'tkazishda «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari», «Методика полевых опытов с хлопчатником в условиях орошения», «Sug'oriladigan tuproqlarda mineral va organik o'g'itlarni tabaqalashtirib qo'llash bo'yicha tavsiyalar», tuproq va o'simlik tahlillari «Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах», «Методы определения свойств хлопка волокна» uslubiy qo'llanmalar asosida olib borilgan. Olingan natijalarni matematik-statistik tahlillari B.A.Dospexov uslubi va Microsoft Excel dasturida dispersion usulda hisoblangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida g'o'zada azot (200 kg/ga) va kaliy (100 kg/ga) o'g'itlar fonida mahalliy xom ashyodan tayyorlangan yangi turdagi mikroelementli superfosfat o'g'itini (140 kg/ga) maqbul qo'llash (kuzgi shudgorda va shonalashda, kuzgi shudgorda va gullashda) muddatlari aniqlangan;

mahalliy xom ashyodan tayyorlangan yangi turdagi Cu va Mo mikroelementli superfosfat o'g'itini azot va kaliy fonida tuproqning agrokimyoviy xossalarini (NO_3 , P_2O_5 , K_2O va Cu, Mo) o'zgarishiga maqbul ta'siri isbotlangan;

g'o'za tomonidan NPK, Cu va Mo elementlarini maqbul o'zlashtirilishi, 1 tonna hosil uchun sarflashi, to'plashi va fosforni foydalanish koeffitsienti 4 yilda o'rtacha 5,0 foizga ortganligi asoslangan;

mikroelementli superfosfat o'g'itini g'o'zani o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va tolaning sifat ko'rsatkichlariga (tola chiqimi 37,2%, uzunligi 30,9 mm, 1000 dona chigit vazni 119,8 g) ijobiy ta'sir qilishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida mahalliy xom ashyodan tayyorlangan yangi turdagi tarkibida mikroelementlari Cu va Mo bo'lgan superfosfat o'g'itini 100 kg/ga P_2O_5 kuzgi shudgorda va 40 kg/ga P_2O_5 g'o'zani shonalash davrida qo'llash samarali ekanligi aniqlangan va bu bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tarkibida Cu va Mo mikroelementlari bo'lgan superfosfat o'g'iti (140 kg/ga P_2O_5) 200 kg/ga N, 100 kg/ga K_2O fonida 100 kg/ga kuzgi shudgorda va 40 kg/ga g'o'zani shonalash davrida qo'llanilganda sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarning agrokimyoviy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'siri kuzatilib, haydov (0-30 sm) va

haydov ostki (30-50 sm) qatlamlarida mutanosib ravishda N-NO₃ miqdori nazoratga nisbatan 4,9-3,7 mg/kg, P₂O₅ 7,9-3,5 mg/kg va K₂O 31,0-40,0 mg/kg ga ortganligi aniqlangan;

tajribada shartli sof foyda (3 617 131 so‘m/ga) va rentabellik darajasi (28,1%) tarkibida Cu va Mo mikroelementlari bo‘lgan superfosfat o‘g‘iti (100 kg/ga) kuzgi shudgorda va (40 kg/ga) g‘o‘zani shonalash davrida qo‘llanilganda olingan va nazoratga nisbatan mutanosib ravishda 982 000 so‘m/ga va 6,2 foizga yuqori bo‘lgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mahalliy xom ashyodan tayyorlangan yangi turdagi mikroelementli superfosfat o‘g‘itining qo‘llash muddatlarini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar PSUYEAITI da qabul qilingan uslublar asosida o‘tkazilganligi, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mosligi, olingan natija va xulosalar asoslanganligi, ma‘lumotlarga O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi matematik-statistik ishlov berilganligi, olingan natijalarning xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda muhokama qilinganligi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e‘tirof etilgan nufuzli xorijiy va respublika ilmiy nashrlarida chop etilganligi, natijalarni amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati eskidan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar sharoitida g‘o‘zada azot va kaliy o‘g‘itlar fonida mahalliy xom ashyodan tayyorlangan yangi turdagi mikroelementli Cu va Mo superfosfat o‘g‘itini maqbul qo‘llash muddatlari aniqlanganligi, tuproqning agrokimyoviy xossalarini o‘zgarishiga maqbul ta‘siri isbotlanganligi, g‘o‘za tomonidan NPK, Cu va Mo elementlarini maqbul o‘zlashtirilishi, 1 tonna hosil uchun sarflashi, va fosforning foydalanish koeffitsienti 4 yilda o‘rtacha 5,0 foizga ortganligi, g‘o‘zani o‘sishi, rivojlanishi, hosildorligi va tolaning sifat ko‘rsatkichlariga ijobiy ta‘sir qilishi asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, mahalliy xom ashyodan tayyorlangan yangi turdagi tarkibida Cu va Mo mikroelementlari bo‘lgan superfosfat o‘g‘itini eskidan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar sharoitida parvarishlanadigan g‘o‘zaga kuzgi shudgor oldidan 100 kg/ga, shonalash davrida 40 kg/ga qo‘llash samarali ekanligi bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilishi, tarkibida Cu va Mo mikroelementlari bo‘lgan superfosfat o‘g‘itini N₂₀₀K₁₀₀ kg/ga fonida qo‘llanilganda tuproqlarning unumdorligiga ijobiy ta‘sir qilib, uning haydov va haydov ostki qatlamlarida mutanosib ravishda N-NO₃ miqdori nazoratga nisbatan 4,9-3,7 mg/kg, P₂O₅ 7,9-3,5 mg/kg va K₂O 31,0-40,0 mg/kg ortishi, tajribalarda nisbatan yuqori shartli sof foyda (3 617 131 so‘m/ga) va rentabellik darajasi (28,1%) tarkibida Cu va Mo mikroelementlari bo‘lgan superfosfat o‘g‘itini (100 kg/ga) kuzgi shudgor va (40 kg/ga) g‘o‘zani shonalash davrlarida qo‘llanilganda olinishi va nazoratga nisbatan mos ravishda 982 000 so‘m/ga va 6,2 foizga yuqori bo‘lishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Mahalliy xom ashyodan tayyorlangan yangi turdagi mikroelementli superfosfat o‘g‘itini sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar sharoitida g‘o‘zada qo‘llashning maqbul muddatlarini aniqlash

bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

«Mahalliy fosforitlardan tayyorlangan mikroelementli (Cu, Mo) superfosfat o'g'itini g'o'zada qo'llash bo'yicha tavsiyalar» Qishloq xo'jaligi vazirligining Toshkent viloyati Piskent tumani qishloq xo'jaligi bo'limiga amaliyotda foydalanish uchun topshirilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2021 yil 6 oktyabrdagi №02/025-4052-son ma'lumotnomasi). Natijada, tumandagi paxtachilikka ixtisoslashgan klaster va fermer xo'jaliklarida qo'llanma sifatida xizmat qilgan;

eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida parvarishlanadigan g'o'zadan yuqori hosil olishda yangi turdagi tarkibida Cu va Mo mikroelementlari bo'lgan superfosfat o'g'iti maqbul muddatlarda ($N_{200}K_2O_{100}$ kg/ga) fonida P_2O_5 100 kg/ga kuzgi shudgorda va 40 kg/ga g'o'zani shonalash davrida qo'llash agrotexnologiyalari Toshkent viloyati Piskent tumanidagi «Haydarov Muzaffar» fermer xo'jaligida 33 gektar, «Ulug'bek Piskent Agro» fermer xo'jaligida 42 gektar, «Avazova Muxabbat» fermer xo'jaligida 43 gektar hamda Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti tajriba uchastkasida 1 gektar, jami 119 gektar maydonlarda amaliyotga joriy qilingan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2021 yil 6 oktyabrdagi №02/025-4052-son ma'lumotnomasi). Natijada, tuproqning agrokimyoviy xossalari (NO_3 , P_2O_5 , K_2O , Cu va Mo) yaxshilangan, fosforni foydalanish koeffitsienti superfosfatga nisbatan o'rtacha 5,0 foizga ortgan, g'o'zani o'sib, rivojlanishi uchun maqbul oziqlanish sharoiti yaratilgan va gektaridan 3-4 sentner qo'shimcha paxta hosili olingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 3 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shundan 1 ta tavsiyanoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar (PhD) asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «Fosforli va mikroelementli o'g'itlarni g'o'zada qo'llash borasidagi mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar natijalari» deb nomlangan

birinchi bobi ikki bo'limdan iborat bo'lib, «Fosforli o'g'itlarni qo'llash bo'yicha tadqiqotlar tahlili» deb nomlangan birinchi bo'limida fosforning ahamiyati va fosfor bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari haqidagi xorijiy hamda mahalliy adabiyotlar tahlili keltirilgan.

Ushbu bobning ikkinchi bo'limi «Mikroelementlarni qo'llash bo'yicha tadqiqotlar tahlili» deb nomlangan bo'lib, unda mikroelementlarning ahamiyati va ularni g'ozada qo'llash bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari to'g'risidagi adabiyotlar tahlili bayon qilingan.

Ammo, keyingi 30 yil davomida paxtachilikda fosfor va mikroelementlarni qo'llash borasida ilmiy tadqiqotlar deyarli o'tkazilmaganligi bois ushbu yo'nalishda mahalliy xom ashyodan tayyorlangan tarkibida Cu va Mo mikroelementlari bo'lgan fosforli o'g'itni g'ozada qo'llashning maqbul muddatlarini aniqlash va tuproqning agrokimyoviy xossalariga ta'sirini o'rganish bo'yicha mikroelementlarning muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida xulosa qilingan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqotlarning tuproq-iqlim sharoitlari, uslublari va qo'llanilgan agrotexnik tadbirlar**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar o'tkazilgan joyning tuproq-iqlim sharoitlari, tadqiqot o'tkazish uslublari, tajriba tizimi, bajarilgan agrotexnik tadbirlar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dala tajribalari Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining tajriba dalasi maydonida eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida o'tkazildi. Tajriba 7 ta variantdan iborat bo'lib, 3 qaytariqda olib borildi. Tajriba paykalining uzunligi 30 m, eni 4,8 m, bitta paykalning maydoni 144 m², shundan hisobga olingani 72 m² tashkil etdi. Tipik bo'z tuproqlar sho'rlanmagan. Ulardagi quruq qoldiq miqdori haydov (0-30 sm) va haydov ostki (30-50 sm) qatlamlarida mutanosib ravishda 0,064-0,064 %, Cl-0,003-0,003 %, karbonatlar miqdori (CO₂) 7,73-7,80 % oralig'idadir. Ta'kidlash joizki, tajribalar har yili bir dalada o'tkazildi. Agrokimyoviy xossalariga ko'ra, tajriba dalasi tuprog'i haydov (0-30 sm) va haydov ostki (30-50 sm) qatlamlarida umumiy gumus miqdori mos ravishda 0,709-0,665 %, azot 0,065-0,057 %, fosfor 0,080-0,065 %, mis 26,5-25,0 mg/kg, molibden 6,3-5,7 mg/kg, harakatchan shakllari esa N-NO₃ 18,1- 7,7; P₂O₅ 20,7-9,1 va K₂O 352,0-216,4 mg/kg, Cu 0,68-0,68 va Mo 0,15-0,03 mg/kg ni tashkil etdi.

Oq-qovoq ob-havoni kuzatish agrometeorostansiyasidan olingan ma'lumotlarga ko'ra tadqiqot yillarining mart va aprel oylarida o'rtacha 91,4-65,5 mm yog'ingarchilik bo'lib, ko'p yillikdan mart oyida 3,7 mm ortiq, aprel oyida esa 6,8 mm ga kam bo'lgan. Yoz oylarida yog'ingarchilik miqdori ko'p yillikka yaqin bo'lgan va havo harorati iyun, iyul va avgust oylarida ko'p yillikdan mutanosib ravishda 2,1; 1,9 va 0,1 °S ga yuqori bo'lganligi aniqlandi. Sentyabr oylarida havo harorati ko'p yillikka teng bo'lib, 20,1 - 20,0 °S ni tashkil etgan. Oktyabr oylarida ham shunday sharoit kuzatildi va paxta yig'im-terimi erta muddatlarda tugallandi.

Dala tajribalarida quyidagi ilmiy-tadqiqotlar olib borildi. Tajribani boshlashdan oldin, kuzda konvert usulida tuproqning (0-30 va 30-50 sm) qatlamlaridan namunalar olinib, umumiy gumus miqdori I.V.Tyurin, azot, fosfor va kaliy K.E.Ginzburg va G.M.Sheglova usullarida I.M.Malseva va L. Gritsenko modifikatsiyasi bo'yicha, N-NO₃ miqdori ionometrik asbobda, harakatchan fosfor

B.P.Machigin, K₂O miqdori P.V.Protasov usulida alangali fotometrda aniqlandi. Shuningdek, tuproq va o'simlik namunalariidagi mis va molibden mikroelementlarining umumiy va harakatchan shakllari Ye.K.Kruglova va atomno-absorbsion usullarida (spektrofotometr jihozi Perkin-Elmer yordamida) Uranredmedgeologiya Aksionerlik jamiyatida aniqlandi.

G'o'zaning o'suv davrida barcha variantlaridan ikki qaytariqdan (0-30, 30-50, 50-70 va 70-100 sm) qatlamlaridan tuproq namunalari olinib, nitratli azot, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy, (0-30 va 30-50 sm) qatlamlaridan olingan tuproq namunalari esa Cu va Mo ning umumiy va harakatchan shakllari yuqorida keltirilgan usullarda aniqlandi. G'o'zani o'sishi va rivojlanishini kuzatish uchun fenologik kuzatuvlar har oyning birinchi kunida o'tkazildi. 1 ga maydondan oziqa moddalarni NPK o'zlashtirilishi va 1 tonna hosil uchun sarflashi, fosforni foydalanish koeffitsienti hisoblandi. Paxta hosili terimlar va qaytariqlar bo'yicha qo'lda terilib, paxta tolasining texnologik sifat ko'rsatkichlari, hamda 1000 dona chigit vazni aniqlandi. Dala tajribalarining natijalari asosida olingan paxta hosili ma'lumotlariga B.A.Dospexov usulida matematik ishlov berildi. Mikroelementli fosfor o'g'itini g'o'zada qo'llash bo'yicha iqtisodiy samaradorligi N.A.Baranov usulida hisoblandi.

Dissertatsiyaning «**Tarkibida mikroelementlari bo'lgan superfosfat o'g'itini tuproqning agrokimyoviy xossalari va o'simliklarning oziqa unsurlarini o'zlashtirishiga ta'siri**» deb nomlangan uchinchi bobida tuproqda harakatchan fosfor dinamikasi bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil sharoitida g'o'zani 2-3 chin bargli davrida harakatchan fosfor miqdori asosan tuproqni haydov va haydov ostki qatlamlarida ko'proq to'planib, faqat azot va kaliy o'g'iti qo'llanilgan 1-variantda (N₂₀₀K₁₀₀ kg/ga) 0-30 va 30-50 sm qatlamlarida mutanosib ravishda 16,0 va 9,0 mg/kg ni tashkil qilgan bo'lsa, g'o'zani shonalash davrida bu ko'rsatkichlar 18,4 va 8,0 mg/kg, gullash davrida 18,6 va 8,0 mg/kg, amal davri oxirida esa 18,0 va 9,0 mg/kg ga teng bo'lganligi aniqlandi. Pastki (50-70 va 70-100 sm) qatlamlarida g'o'za amal davri mobaynida deyarli o'zgarmadi. N₂₀₀K₁₀₀ kg/ga fonida tarkibida Cu va Mo bo'lgan superfosfat o'g'iti qo'llanilgan 4, 5, 6, 7 - variantlarda harakatchan fosfor miqdori g'o'zani 2-3 chin barg davrida tuproqning (0-30 va 30-50 sm) qatlamlarida kam darajada (20,0-20,8 mg/kg va 9,2-9,5 mg/kg) bo'lganligi aniqlandi. G'o'zaning shonalash davrida tuproqni (0-30 va 30-50 sm) qatlamlarida bu ko'rsatkichlar nazorat variantiga (1-variant) nisbatan 6,6-7,4 va 0,1-0,9 mg/kg ga, gullash davrida 5,4-5,9 va 0,2-0,7 mg/kg ga, amal davri oxirida esa 3,0-4,6 va 0,1-0,2 mg/kg ga ortganligi aniqlandi. PS-Agro va superfosfat o'g'iti qo'llanilgan 2 va 3 variantlarda esa harakatchan fosfor miqdori g'o'zani amal davri oxirida haydov (0-30 sm) va haydov ostki qatlamlarida (30-50 sm) mutanosib ravishda 20,0-21,0 mg/kg va 9,0-9,0 mg/kg ni tashkil etib, nazoratga nisbatan haydov qatlamida 2,0-3,0 mg/kg bo'lganligi va haydov ostki qatlamida esa farqlanmaganligi kuzatildi. Demak, bu o'g'itlarni tuproqdagi harakatchan fosfor miqdorining o'zgarishiga tas'iri deyarli teng ekanligini ko'rsatadi. Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida tarkibida Cu va Mo mikroelementlari bo'lgan superfosfat o'g'itining

g'ozadagi nisbatan yuqori ta'siri 100 kg/ga P₂O₅ kuzgi shudgorda va 40 kg/ga P₂O₅ shonalash davrida qo'llanilgan (4-variantda) kuzatildi. Tuproqning (0-30 sm) va (30-50 sm) qatlamlarida harakatchan P₂O₅ miqdori 26,5-8,6 mg/kg ga teng bo'lib, nazoratdan 7,9 - 0,6 mg/kg ga, dastlabki (20,7-9,1 mg/kg) holatidan esa 5,8 (-0,5) mg/kg ga farqlanganligi aniqlandi.

Tajribada N₂₀₀K₁₀₀ kg/ga qo'llanilgan «FON» li variantda tuproqni haydov va haydov ostki qatlamlarida mis va molibdenning umumiy shakllarining miqdorlari mutanosib ravishda 24,5_(Cu)-5,8_(Mo) mg/kg hamda 22,9_(Cu)-5,2_(Mo) mg/kg ni, harakatchan shakllarining miqdorlari esa 0,58-0,14 mg/kg hamda 0,50-0,03 mg/kg ni tashkil etgan bo'lsa, N₂₀₀K₁₀₀ kg/ga fonida tarkibida Cu va Mo bo'lgan superfosfat o'g'iti qo'llanilgan 4, 5, 6, 7 - variantlarda mis va molibdenni umumiy shakllarining miqdorlari tuproqni haydov (0-30 sm) va haydov ostki (30-50 sm) qatlamlarida mos ravishda 26,5-27,8 mg/kg, 6,8-6,5 mg/kg, 24,3-25,8 hamda 5,8-6,5 mg/kg oralig'ida bo'lganligi aniqlandi.

PS-Agro va superfosfat o'g'iti qo'llanilgan 2 va 3 variantlarda esa mis va molibdenni umumiy shakllarining miqdorlari tuproqning haydov (0-30 sm) va haydov ostki qatlamlarida (30-50 sm) mutanosib ravishda 25,9-25,0 va 6,0-5,9; 23,7-23,0 va 5,6-5,4 mg/kg ni, harakatchan miqdorlari esa 0,65-0,64 va 0,16-0,15 mg/kg, 0,63-0,62 va 0,05-0,04 mg/kg ni tashkil etgan holda Cu ning harakatchan shakllari nazoratdan 0,07-0,06 mg/kg va 0,13-0,12 mg/kg ga ortiq bo'lganligi kuzatildi.

Nisbatan yuqori ko'rsatkichlar tarkibida Cu va Mo mikroelementlari bo'lgan superfosfat o'g'iti 100 kg/ga kuzgi shudgorda va 40 kg/ga g'ozani shonalash davrida qo'llanilganda olinib, tuproq qatlamlariga mutanosib ravishda Cu ni umumiy shaklining miqdori 27,8-25,8 mg/kg oralig'ida, Mo esa 6,8-6,5 mg/kg ga teng bo'lib, nazoratdan 3,3-2,9 va 1,0-1,3 mg/kg ga ko'p bo'lganligi aniqlandi.

Ta'kidlash joizki, tuproq tarkibida mis miqdorlari PDK ko'rsatkichlaridan umumiy va harakatchan miqdorlari oshmadi, molibden miqdorlari PDK ko'rsatkichlaridan umumiy miqdori (0,8-3,1 mg/kg) 3, 4, 5, 6 - variantlarda biroz oshganligi, harakatchan miqdori PDK ko'rsatkichlaridan (0,15-0,30 mg/kg) oshmaganligi kuzatildi.

G'ozaning amal davri oxirida o'simlikdagi umumiy azotni nisbatan ko'proq miqdori barglarda va paxtada, fosfor barglarda, poyada hamda paxtada, kaliy esa barglarda va chanoqlarda bo'lishi aniqlandi. N₂₀₀K₁₀₀ kg/ga qo'llanilgan nazorat variantda umumiy azot, fosfor va kaliy miqdorlari tegishli ravishda barglarda 1,62, 1,74; 2,00 % ni, poyada 0,34; 0,40; va 2,68 % ni, chanoqlarda 0,60; 0,43; va 2,12 % ni, ildiz tarkibida 0,28, 0,79 va 1,98 % ni hamda paxtada esa 2,12; 0,92 va 1,00 % ni tashkil etgan. N₂₀₀K₁₀₀ kg/ga fonida tarkibida Cu va Mo bo'lgan superfosfat o'g'iti qo'llanilgan 4, 5, 6, 7 - variantlarda barglarda bu ko'rsatkichlar ortib, nazorat variantiga nisbatan umumiy azot miqdori 0,28-0,44 % ga, fosfor 0,26-0,34 % ga, kaliy 0,22-0,28 % ga, poyada umumiy azot miqdori 0,04-0,10% ga, fosfor 0,03-0,08 % ga, kaliy 0,10-0,16 % ga, chanoqda azot miqdori 0,10-0,16 % ga, fosfor 0,21-0,27 % ga, kaliy 0,12-0,18 % ga, ildiz tarkibida azot miqdori 0,06-0,14 % ga, fosfor 0,07-0,16 % ga, kaliy 0,08-0,14 % ga, paxtada azot miqdori


0,04-0,10 % ga, fosfor 0,05-0,10 % ga, kaliy 0,05-0,10 % ga ko'proq to'plangani aniqlandi. PS-Agro o'g'iti qo'llanilgan 2-variantda esa maqbul ko'rsatkichlar olingan 4-variantga nisbatan barglarda umumiy azot miqdori 0,28 % ga, fosfor 0,26 % ga, kaliy 0,16 % ga, poyada tegishli ravishda 0,08-0,06-0,14 % ga, chanoqlarda 0,14-0,24-0,16 %, ildizda 0,11-0,12-0,12 % ga, paxtada 0,09-0,08-0,08 % ga kam bo'lganligi kuzatildi.

Tajribada nisbatan yuqori ko'rsatkichlar 4-variantda, tarkibida Cu va Mo bo'lgan superfosfat o'g'iti 100 kg/ga (P_2O_5) kuzgi shudgorda va 40 kg/ga (P_2O_5) g'o'zani shonalash davrida qo'llanilganda kuzatilib, umumiy azot miqdorlari barglarda 2,06 %, poyada 0,44 %, chanoqlarda 0,76 %, ildizda 0,42 % va paxtada 2,22 % ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar albatta nazoratdan yuqori, qolaversa andoza sifatida qo'llanilgan superfosfat o'g'itidan (3-variant) mutanosib ravishda 0,26; 0,07; 0,12; 0,10 va 0,9 % ga, yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Izlanishlarda g'o'zada $N_{200}K_{100}$ kg/ga qo'llanilgan nazorat variantda 1 gektar maydondan 128,2 kg azot, 60,3 kg fosfor va 131,2 kg kaliy o'zlashtirilgan bo'lsa, $N_{200}K_{100}$ kg/ga fonida tarkibida mis va molibden bo'lgan superfosfat o'g'iti qo'llanilgan (4, 5, 6, 7) variantlarda 160,8-174,0 kg azot, 90,0-94,0 kg fosfor va 164,5-195,3 kg kaliy o'zlashtirilganligi aniqlandi (1-rasm).

PS-Agro va superfosfat o'g'iti qo'llanilgan 2 va 3 variantlarda esa mutanosib ravishda 152,9-156,6 kg azot, 86,5-85,5 kg fosfor va 155,4-162,6 kg kaliy o'zlashtirilib, 1-variantga nisbatan 24,7-28,4 kg azot, 22,8-21,8 kg fosfor, 24,2-31,4 kg kaliy yuqori bo'lgan. Tajribada nisbatan ko'proq oziqa moddalari g'o'za tomonidan tarkibida Cu va Mo bo'lgan superfosfat o'g'iti kuzgi shudgorda (100 kg/ga) va shonalashda (40 kg/ga) qo'llanilganda olinib, 174,0 kg/ga N, 94,0 kg/ga P, va 195,3 kg/ga K ga to'g'ri keldi, bular, andoza 3-variantga nisbatan 17,4; 8,5 va 32,7 kg/ga yuqori bo'lganligi kuzatildi.

$N_{200}K_{100}$ kg/ga qo'llanilgan 1-variantda 1 tonna paxta hosili uchun 38,4 kg azot, 19,0 kg fosfor va 39,3 kaliy sarflangan bo'lsa, $N_{200}K_{100}$ kg/ga fonida PS-Agro va superfosfat o'g'itlari qo'llanilgan 2 va 3 variantlarda g'o'za 1 tonna hosil uchun mutanosib ravishda 42,6-44,0 kg azot, 24,0-24,0 kg fosfor va 43,3-45,7 kg kaliyni sarflagan holda nazoratdan fosforni sarflanishi 5,0-5,0 kg ga yuqori bo'lib, foydalanish koeffitsienti esa 16,2-15,5 % ni tashkil etganligi kuzatildi. Nisbatan yuqori ko'rsatkichlar 4-variantda olinib, 1 tonna hosil uchun 45,4 kg azot, 24,5 kg fosfor va 51,0 kg kaliy sarflangani kuzatildi, fosforning foydalanish koeffitsienti 24,0 % ga teng bo'ldi. Bu oxirgi ko'rsatkich PS-Agro o'g'itidan 5,3 % ga, andozadan (3-variant) esa 6,0 % ga yuqori bo'ldi.



1-rasm. G‘o‘zaning bir gektar maydondan fosforni o‘zlashtirishi va bir tonna hosil uchun sarflashi

N₂₀₀K₁₀₀ kg/ga qo‘llanilgan nazorat variantida umumiy mis va molibden miqdori tegishli ravishda barglarda 2,1 va 9,0 mg/kg, poyada 2,8 va 0,22 mg/kg, chanoqlarda 2,4 va 3,4 mg/kg, ildizda 2,4 va 0,6 mg/kg, paxtada esa 3,1 va 0,4 mg/kg ni tashkil etdi.

PS-Agro va superfosfat o‘g‘iti qo‘llanilgan 2 va 3 variantlarda esa bargda mos ravishda umumiy mis miqdori 3,2-3,2 mg/kg, molibden miqdori 10,8-10,7 mg/kg, poyada umumiy mis miqdori 3,8-3,7 mg/kg, molibden miqdori 0,28-0,28 mg/kg, chanoqlarda mis miqdori 3,8-3,6 mg/kg, molibden miqdori 4,6-4,4 mg/kg, ildiz tarkibida mis miqdori 3,8-3,2 mg/kg, molibden miqdori 0,6-0,5 mg/kg ni va paxtada esa mis miqdori 4,8-3,9 mg/kg ni, molibden miqdori 0,8-0,9 mg/kg oralig‘ida bo‘lganligi aniqlandi. Bu yuqoridagi ko‘rsatkichlar orasida paxta tarkibidagi mis miqdorlari PS-Agro o‘g‘iti qo‘llanilganda molibden esa superfosfat qo‘llanilganda nisbatan ko‘proq bo‘lib, nazoratga nisbatan 0,9 va 0,1 mg/kg ga yuqori bo‘lganligi kuzatildi.

N₂₀₀K₁₀₀ kg/ga fonida tarkibida Cu va Mo bo‘lgan superfosfat o‘g‘iti qo‘llanilgan 4, 5, 6, 7 - variantlar orasida nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar 4-variantda olinib, g‘o‘zaning barglarida mis va molibden miqdorlari mutanosib ravishda 4,5-12,4 mg/kg, poyada 5,7-0,32; chanoqlarda 4,7-6,2; ildizda 5,9-3,2 va paxtada 5,8-1,6 mg/kg ni tashkil etdi va nazoratdan (paxtada) 2,7-1,2 mg/kg ga, andoza 3-variantga nisbatan esa 1,9-0,7 mg/kg ga yuqori bo‘ldi.

G‘o‘za organlarida aniqlangan umumiy mis va molibdenning miqdorlari asosida, o‘simliklarning 1 ga maydondan bu elementlarni o‘zlashtirishi va 1 tonna hosil uchun sarflashi hisoblandi. Nazorat (N₂₀₀K₁₀₀ kg/ga) variantida 1 ta o‘simlik 0,401 mg Cu va 0,384 mg Mo ni o‘zlashtirgan holda, 1 tonna paxta hosili uchun mutanosib ravishda 0,0120 va 0,0114 mg sarflanganligi kuzatildi. Biz qo‘llagan PS-Agro va superfosfat o‘g‘itlari (N₂₀₀K₁₀₀ kg/ga fonida) ta‘sirida 1 ta o‘simlik mutanosib ravishda 0,568 va 0,578 mg Cu, 0,403 va 0,434 Mo mg. ni o‘zlashtirib, 1 tonna hosil uchun 0,0158-0,0162 mg va 0,0112-0,0121 mg sarflangani aniqlandiki, bu oxirgi 2 ta ko‘rsatkichlar nazoratdan 0,0038-0,0042 va (-0,0002) - 0,0007 mg ko‘p ekanligi kuzatildi (1-jadval).

G‘o‘zaning 1 gektar maydondan mis va molibden (mikroelementlar) ni o‘zlashtirishi va 1 tonna hosil uchun sarflashi, 2019 yil

Variantlar	Tajriba variantlari	1 ga maydondan, mg/o‘simlik		1 tonna hosil uchun, mg/o‘simlik	
		Cu	Mo	Cu	Mo
1	N ₂₀₀ K ₁₀₀ kg/ga (Fon)	0,401	0,384	0,0120	0,0114
2	Fon+P ₁₄₀ kg/ga (xo‘jalikda qo‘llanilgan PS-Agro o‘g‘iti 100 kg/ga shudgorda, 40 kg/ga gullashda)	0,568	0,403	0,0158	0,0112
3	Fon+P ₁₄₀ kg/ga (superfosfat o‘g‘iti 100 kg/ga shudgorda, 40 kg/ga gullashda)	0,578	0,434	0,0162	0,0121
4	Fon+P ₁₄₀ kg/ga (tarkibida mis va molibden bo‘lgan superfosfat o‘g‘iti 100 kg/ga shudgorda, 40 kg/ga shonalashda)	0,699	0,604	0,0182	0,0157
5	Fon+P ₁₄₀ kg/ga (tarkibida molibden bo‘lgan superfosfat o‘g‘iti 100 kg/ga shudgorda, 40kg/ga shonalashda)	0,582	0,480	0,0154	0,0131
6	Fon+P ₁₄₀ kg/ga (tarkibida mis va molibden bo‘lgan superfosfat o‘g‘iti 100 kg/ga shudgorda, 40 kg/ga gullashda)	0,639	0,575	0,0174	0,0157
7	Fon+P ₁₄₀ kg/ga (tarkibida molibden bo‘lgan superfosfat o‘g‘iti 100 kg/ga shudgorda, 40 kg/ga gullashda)	0,562	0,491	0,0154	0,0134

